

“Maxam-Chirchiq” aksiyadorlik jamiyatida tayyor mahsulotlarni hisobga olish va sotishni, RFID texnologiyasi asosida markirovkalash orqali, avtomatlashtirilgan axborot tizimini ishlab chiqish va joriy etishga tanlov e’lon qiladi

// 18.05.2022

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/tender/markirovka-maxam-chirchiq>

1. Tanlov mavzusi:

“Maxam-Chirchiq” AJ korxonalarida tayyor mahsulotlarni markirovkalash bo`yicha avtomatlashtirilgan axborot tizimini ishlab chiqish va joriy etish.

2. Ishlar/xizmatlarning mazmuni:

Axborot tizimini ishlab chiqish, amalga oshirish, takomillashtirish va kafolatli qo`llab-quvvatlash. Axborot tizimi texnik shartlarning talablariga javob berishi kerak.

“Maxam-Chirchiq” AJning barcha korxonalarida tayyor mahsulotlarni markirovkalash, mahsulotlarni jo`natish va tayyor mahsulotlar harakati, omborlar, tayyor mahsulotlarni savdosi, korporativ hisoboti va ma`lumotlarni umumlashtirishni boshqarish uchun modullarining apparat va dasturiy qismlarini joriy etish zarur.

3. Tanlov takliflarini yuborish tartibi to`g`risida ma`lumot:

Takliflar birja platformalarida <https://etender.uzex.uz/lot/90225> manzili orqali qabul qilinadi.

Texnik takliflarni 19.05.2022 yil sanasidan 28.06.2022 yil sanasigacha qabul qilinadi.

Manzil: «MAXAM-CHIRCHIQ» AJ, 111708 O`zbekiston Respublikasi, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Toshkent ko`chasi, 2.

Telefon: +998 70 715-15-75, +998 70 715-25-20

4. Kompaniyaga qo`yilgan talablar:

- Tashkilot yuqorida ko'rsatilgan xizmatlarni amalga oshirish uchun barcha zarur litsenziyalar va sertifikatlariga ega bo'lish;
- Kamida 3 ta mijozlardan ijobiy tavsiyanomalar taqdim etish;
- Kamida 3 yil ushbu xizmatlar bozorida ish tajribasiga ega bo'lish;
- Shu kabi ishlanmalar va ularning tadbiq etilganligi haqida ma`lumot berish;
- Yuridik va buxgalteriya hujjatlarini berish va olish huquqiga ega bo`lgan Toshkent shahridagi ofisning mavjudligi;
- Bankrotlik va sud jarayonlari bosqichida emasligi.

5. Kafolat talablari:

- Xizmatlarni o`z vaqtida to`g`ri bajarish kafolati;
- Ish qabul qilinganidan so`ng kamida 12 oy davomida xizmat ko`rsatish kafolati.

6. Eng yaxshi taklifni aniqlashda buyurtmachi tomonidan foydalaniladigan mezonlar:

- Funktsional imkoniyatlar;
- Sifat;
- Qiymati;
- Xizmat ko'rsatish muddatlari;
- Xizmat ko'rsatish kafolati.